



## ISHLAB CHIQRISHNI MAHALLIYLAHSTIRISH VA UNING IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI

*Toshov Mirzabek Xakimovich*  
*Osiyo xalqaro universiteti magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatimizda ishlab chiqarishni mahalliyashtirishga qaratilgan davlat siyosati hamda ishtiroki to'g'risida, uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatiga qaratilayotgan etibor haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ishlab chiqarish, mahalliyashtirish, klaster, tadbirkorlik, sifatli mahsulot, rivojlanish.

Bugun yurtimiz hayotida ulkan islohotlar jarayoni kechmoqda. Mamlakatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoevning tashabbuskorliklari va qo'llab-quvvatlashlari bilan har bir sohada o'zgarishlar, yangilanishlar shiddati ko'zga tashlanadi. "O'ztransgaz" aksiyadorlik jamiyati ham bu jarayonida faol ishtirok etmoqda. Tizimni modernizatsilash, innovatsiyalarni joriy etish yo'lidagi sa'yi-harakatlar bunga misoldir. Iqtisodiyotda amalga oshiriladigan tub tarkibiy o'zgarishlarning muhim yo'nalishlaridan biri import o'rnini bosuvchi, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarni vujudga keltirish va rivojlantirish hisoblanadi. O'z navbatida import o'rnini bosuvchi mahsulotlar chiqarish orqali Yurtimizda yangi korxonalar tashkil etilishiga va mavjud korxonalarni ish xajmi va daromadlarini hamda mahsulot sifatini oshishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi va Ilmiy muassasalar olimlari ishtirokida o'tgan tadbirda dastlab gaz transporti tizimida bugungi kunda import qilinayotgan mahsulotlar va xizmat turlari haqida ma'lumot berildi. Gaz xaydash dvigatellarini kapital ta'mirlash, magistral gaz quvurlarining ichki korroziyasini aniqlash texnologiyasi, kimyoviy moddalar, quvurlarni tashqi ta'sirlardan ximoyalovchi vositalar kabi mahsulot va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlar dolzarbligiga e'tibor qaratildi. Aksariyati shu kunlarda xorijdan valyuta hisobiga olib kelinayotgan bu ehtiyojlarni ichki imkoniyatlar hisobiga qondirilishi esa valyutani tejash va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash sifatida ahamiyatli.

Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish – sanoat ishlab chiqarishining turli bosqichlarida import shaklida xarid qilish orqali qo'llaniluvchi detallar, butlovchi qismlar, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlarni mahalliy xomashyo va materiallar asosida ishlab chiqarishga o'tkazish jarayoni.

Mahalliyashtirish dasturining asosiy maqsadi — O'zbekiston Respublikasida eksportga mo'ljallangan va import o'rnini bosadigan, raqobatbardosh zamonaviy mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, mahalliy xomashyo va mineral resurslar negizida ichki va tashqi bozor talablariga javob beradigan mahalliy mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirishdan iborat.

Shu bilan birga, dastur doirasida ichki tarmoq va tarmoqlararo, shu jumladan, respublikaning kichik biznes va yirik korxonalari o'rtasidagi sanoat kooperatsiyasini keng



yo'lga qo'yish va uni yanada mustahkamlash ko'zda tutilgan. Mahalliyashtirish dasturi doirasida yurtimizda import o'rnini bosadigan mahsulotlarni ishlab chiqarayotgan korxonalar safi yildan yilga kengayib bormoqda. Natijada mamlakatimiz bozorlarida hamda xorijda "O'zbekistonda ishlab chiqarilgan" belgisi ostida sifatli, raqobatbardosh mahsulotlar turi kengayib bormoqda. Yirik sanoat korxonasi bo'lgan "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatida ham bu borada keng qamrovli ishlar amalga oshirilayapti.

Yaqin istiqbolda mahalliyashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish maqsadida, kombinatning markaziy ta'mirlash mexanika zavodini modernizatsiya qilish va buning natijasida texnologik uskunalarni uchun hozirda import orqali sotib olinayotgan ehtiyot qismlar va butlovchi buyumlarni ushbu bo'linma quvvatlarida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, hamda portlovchi moddalar zavodi quvvatlarida noelektrik qo'zg'atish tizimlarini ishlab chiqarishga mo'ljallangan qo'shma korxonani ishga tushirish rejalashtirilgan. Mamlakatimizni iqtisodiy rivojlantirish borasida amalga oshirayotgan islohotlarining dolzarb mavzularidan biri bu - ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va sanoat tarmoqlarida kooperatsiya aloqalarini jadallashtirishning yangi tizimini joriy etishdir. Ushbu sohada hokimiyat organlarining mas'uliyatini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti 2019 yil 24 avgustda "Davlat va xo'jalik boshqaruvi hamda mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va sanoat tarmoqlarida kooperatsiya aloqalarini jadallashtirishning yangi tizimini joriy etish bo'yicha mas'uliyatini yanada oshirish to'g'risida"gi Qarorni imzoladi. "O'ztransgaz" AJ Qarorda belgilangan ustuvor vazifalarni o'z vaqtida mukammal bajarilishini ta'minlash, jamiyat faoliyati doirasida mavjud bo'lgan talab va takliflarni tizimli ravishda bosqichma-bosqich mahalliyashtirish va importni qisqartirish ishlarini optimal ravishda amalga oshirib kelmoqda.

Mahalliyashtirish — arzon va sifatli mahsulot tomon yo'ldir. Mahalliyashtirish — iqtisodiy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi.

Hozirgi kunda "Issiqlik elektr stansiyalari" AJ korxonalari bazasida mahalliyashtirish dasturi doirasida tizim ehtiyojlariga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, ta'mirlash fondi doirasida modernizatsiya va rekonstruksiya qilish ishlarini jadallashtirish hamda qurilish-montaj ishlarining tannarxini pasaytirish maqsadida jamiyat tomonidan hududlarda ishlab chiqarish sexlari faoliyati yo'lga qo'yilgan. Mahalliyashtirish jarayoniga 9 ta tizim korxonasi jalb etilgan bo'lib, ularning jami 29 ming kvadrat metr maydonidagi stanok parklarida har xil turdagi 200 dan ortiq dastgohlar joylashtirilgan. Mazkur dastgohlar yordamida tizim uchun zarur bo'lgan 400 turdan ziyod ehtiyot qismlari va butlovchi buyumlar tayyorlash imkoniyati mavjud bo'lib, hozirgi kunda korxonalarining ta'mirlash fondi doirasida 98 loyiha bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Mahalliyashtirish jarayonining salohiyati inobatga olingan holda, 2021 yil rejasi 51 loyihadan 98 loyihaga oshirilib, 11,221 milliard so'm hajmida tasdiqlandi. 9 oy davomida mahalliyashtirish rejasi 9,09 milliard so'm o'rniga 10,92 milliard so'm yoki 120 foizga





bajarildi. Tizimda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, xususan, energiya uskunalari uchun ehtiyot qismlari va butlovchi buyumlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish hisobiga importni optimallashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, 2022 yilda xalq iste'moli mollari toifasiga kiruvchi qiymati 7 milliard so'm miqdoridagi 50 dan ortiq turdagi mahsulotlarni korxonalar bazasida ishlab chiqarish va sotishni yo'lga qo'yish ko'z tutilayotir. Bunday sa'y-harakatlar zamirida tizim korxonalari xarajatlarini kamaytirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, pirovardida tizim korxonalari faoliyatini rivojlantirishdek ezgu maqsadlar bilan mujassamdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

4. "Davlat va xo'jalik boshqaruvi hamda mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va sanoat tarmoqlarida kooperatsiya aloqalarini jadallashtirishning yangi tizimini joriy etish bo'yicha mas'uliyatini yanada oshirish to'g'risida" 2019 yil 24 avgustdagi PQ-4426-son qarori.
5. Mahalliyashtirish dasturiga tuzatishlar kiritish mexanizmini soddalashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi 2009-yil 27-yanvardagi PQ-1048-son qarori.
6. "Xalq so'zi" gazetasi № 114 06.06.2023 y.